XALQ DEPUTATLARI ULUG`NOR TUMANI KENGASHINING QARORI
Ulug`nor tumani

2021 - yil 20 - dekabr VI-30-50-1-26-K/21 Ulug‘nor tuman hokimligi

Ulug`nor tuman bo`yicha qishloq xo`jaligiga mo`ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo`yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni tasdiqlash haqida

O`zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429- va 437-moddalari hamda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig`ini yanada takomillashtirish to`g`risida”gi PF-6121-sonli farmonining 4-bandiga muvofiq tuman moliya bo`limi va tuman davlat soliq inspeksiyasining “Qishloq xo`jaligiga mo`ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo`yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar” loyihasi bo`yicha kiritgan takliflarni muhokama etib, O`zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Ulug`nor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Davlat soliq qo`mitasining 2021 yil 8 noyabrdagi “Qishloq xo`jaligiga mo`ljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo`llash to`g`risida”gi 06/04-01-32/2248-sonli va 19/10-68220-sonli qo`shma xatiga asosan,

Quyidagilar:

- yer solig`ining amaldagi soliq stavkalari 2022 yilda 1,07 baravarga indeksatsiya qilinishi kutilayotganligi;

- Andijon viloyati uchun qishloq xo`jaligiga mo`ljallanmagan yerlar bo`yicha yuridik shaxslarga 1 gektar uchun 35,0 mln. so`m va jismoniy shaxslarga 1 kv.metr uchun 320,0 so`m 2 bazaviy soliq stavkasi belgilanishi ko`zda tutilganligi;

- kelgusi yil bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo`llashda keyingi yil mahalliy byudjet daromadlari prognozidan kelib chiqish bo`yicha tavsiyalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Qishloq xo`jaligiga mo`ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo`yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar” miqdorlarini belgilash bo`yicha tuman Moliya bo`limining hamda tuman Davlat soliq inspeksiyasining qo`shma taklifi ma’qullansin.

3. Mazkur qarorga asosan;

- Ulug`nor tumani hududida qishloq xo`jaligiga mo`ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo`yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq;

- Ulug`nor tuman hududida Jismoniy shaxslar bo`yicha (dehqon xo`jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo’jaligiga mo’ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda:

- soliq idoralariga jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig’i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2021 yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi ko`rsatib o`tilsin.

4. Tuman hokimining birinchi o`rinbosari (A.Xamraqulov), tuman moliya bo`limi (M.Raxmonov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (E.Mo`minov) 3 kun muddatda qishloq xo`jaligiga mo`ljallanmagan yerlar boyicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan koeffitsientlarni soliq to`lovchilarga yetkazilishini ta’minlasin.

5. Tuman moliya bo`limi (M.Raxmonov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (E.Mo`minov)larga;

- ushbu qarorning ilovasiga asosan belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kelgusi yil uchun mahalliy byudjet daromadlari prognozidan hamda mamlakatimizda iqtisodiy faollikning tiklanganligi hamda aholi va tadbirkorlarning daromadlari barqarorlashganligidan kelib chiqqan holda qo`llashlari tavsiya etilsin.

6. Ulug`nor tuman Davlat soliq inspeksiyasi (E.Mo`minov) yer solig'i bo`yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini 2021 yil 31-dekabrga qadar barcha soliq to`lovchilarga soliq to`lovchining shaxsiy kabineti orqali xabarnoma yetkazilishini ta'minlasin.

7. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (E.Mo`minov) O`zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

- soliqlarning to`liq va to`g`ri hisoblanishini hamda o`z vaqtida byudjetga undirilishini nazoratga olib borish;

- tegishli byudjetning ijro etilishi jarayonida tushumlarni ko`paytirish bo`yicha qo`shimcha zaxiralarni aniqlash;

- yer solig`ining soliq bazasini oshirish, ya'ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

8. Tuman moliya bo`limi (M.Raxmonov), Davlat soliq inspeksiyasi (E.Mo`minov) va «Ulug`nor» gazetasi muxarriri (M.Qodirova) bilan birgalikda ushbu qarorning 1-, 2-ilovalariga muvofiq soliq stavkalari, soliq solish tartib-taomillari hamda boshqa masalaga oid ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta'minlasin.

9. Mazkur qaror «Ulug'nor» gazetasida e'lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

10. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo`yicha doimiy komissiyasi raisi S.Abdulahatov hamda tuman hokimining birinchi o`rinbosari A.Hamraqulov zimmalariga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Ulug`nor tuman Kengashining XXX-sessiyasi raisi:** **K.G`oziyev

Халқ депутатлари Улуғнор туман
Кенгашининг
2021 йил 20 декабрдаги
VI-30-50-1-26-K/21-сон қарорига
1-илова

1-ILOVA

Qishloq xo`jaligi uchun mo`ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo`yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Hududnomi	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	1 gektar uchun soliq stavkasi (ming so`m)
1	Shaxriobod MFY	0,80	28 000,0
2	Bobur MFY	0,80	28 000,0
3	Obod MFY	0,80	28 000,0
4	Ulug`bek MFY	0,80	28 000,0
5	Yangiobod MFY	0,70	24 500,0
6	Bo`ston MFY	0,70	24 500,0
7	Terakzor MFY	0,70	24 500,0
8	Farovon MFY	0,70	24 500,0
9	Mingbuloq MFY	0,70	24 500,0
10	Cho`lobod MFY	0,70	24 500,0
11	O`zbekiston MFY	0,70	24 500,0
12	Fayziobod MFY	0,70	24 500,0
13	Nurobod MFY	0,70	24 500,0
14	Fazogir MFY	0,70	24 500,0
15	Uchko`prik MFY	0,70	24 500,0
16	Mingchinor MFY	0,70	24 500,0
17	Oqtom MFY	0,70	24 500,0
18	Guliston MFY	0,70	24 500,0
19	To`rttol MFY	0,70	24 500,0
20	Avulmat MFY	0,75	26 250,0
21	Sariqsuv MFY	0,75	26 250,0

O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasiga muvofiq, Ulug`nor tumanida yuridik shaxslar uchun qishloq xo`jaligi uchun mo`ljallanmagan yerlar bo`yicha yer solig`ining bazaviy stavkasi 1 gektar uchun 35,0 mln. so`m qilib belgilangan. Qo`llanilishi lozim bo`lgan soliq summasi bazaviy stavkani koeffitsientga ko`paytirish orqali aniqlanadi.

Халқ депутатлари Улуғнор туман
Кенгашининг
2021 йил 20 декабрдаги
VI-30-50-1-26-K/21-сон қарорига
2-илова

2-ILOVA

Jismoniy shaxslar bo`yicha (dehqon xo`jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo`jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Hududnomi	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	1 kv. muchun soliq stavkasi (mingso`m)
1	Shaxriobod	0,80	256,0
2	Bobur	0,80	256,0
3	Obod	0,80	256,0
4	Ulug`bek	0,80	256,0
5	Yangiobod	0,70	224,0
6	Bo`ston	0,70	224,0
7	Terakzor	0,70	224,0
8	Farovon	0,70	224,0
9	Mingbuloq	0,70	224,0
10	Cho`lobod	0,70	224,0
11	O`zbekiston	0,70	224,0
12	Fayziobod	0,70	224,0
13	Nurobod	0,70	224,0
14	Fazogir	0,70	224,0
15	Uchko`prik	0,70	224,0
16	Mingchinor	0,70	224,0
17	Oqtom	0,70	224,0
18	Guliston	0,70	224,0
19	To`rttol	0,70	224,0
20	Avulmat	0,75	240,0
21	Sariqsuv	0,75	240,0

O`zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq, Ulug`nor tumanida jismoniy shaxslar uchun qishloq ho`jaligi uchun mo`ljallanmagan yerlar bo`yicha yer solig`ining bazaviy stavkasi 1 kv.metr uchun 320,0 so`m qilib belgilangan. Qo`llanilishi lozim bo`lgan soliq summasi bazaviy stavkani koeffitsient miqdoriga ko`paytirish orqali aniqlanadi.

Халқ депутатлари Улуғнор туман Кенгашининг
2021 йил 20 декабрдаги
VI-30-50-1-26-K/21-сон қарорига
3-илова

Ulug`nor tuman bo`yicha qishloq xo`jaligiga mo`ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo`yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni tasdiqlash haqidagi Xalq Deputatlari Ulug'nor tuman Kengashining qaror loyihasi haqidagi Korrupsiyaviy omillarni aniqlash bo'yicha

Ch E K L I S T

Yo'nalishlar	**Mezonlar (korrupsiyaviy omillar)**	**Javoblar**				**Korrupsiyaviy omil mavjud norma va uning asosi**
Normalarning barqarorligi va huquqiy muvofiqligi bilan bog'liq korrupsiyaviy omillar	So'zlarning noto'g'ri qo'llanilishi	bor	-	Yo`q	+	
	Noaniq va asossiz havolalar keltirilganligi	bor	-	Yo`q	+	
	Normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida ziddiyatlarning mavjudligi	bor	-	Yo`q	+	

Vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Diskretsion vakolatlarning kengligi	bor	-	Yo`q	+	
	Aniq belgilanmagan vakolatlar	bor	-	Yo`q	+	
	Davlat organi tomonidan uning vakolatiga kirmaydigan masalalar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi	bor	-	Yo`q	+	
	Vazifa yoki topshiriqni bajarish uchun ijrochida yetarli vakolatlar va resurslarning mavjud emasligi	bor	-	Yo`q	+	
	Kechiktirib tartibga solish	bor	-	Yo`q	+	
	Manfaatlar to‘qnashuvi	bor	-	Yo`q	+	
	Davlat organlarining takrorlovchi vakolatlari va vazifalarining mavjudligi	bor	-	Yo`q	+	
	Afzalliklarning asossiz belgilanishi	bor	-	Yo`q	+	
	Normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asossiz ravishda qoldirish	bor	-	Yo`q	+	
	Huquq va majburiyatlar o‘rtasidagi nomutanosibliklar	bor	-	Yo`q	+	
Ma’muriy tartib-tamoillar bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Ma’muriy tartib-tamoillarning mavjud emasligi yoki to‘liq emasligi	bor	-	Yo`q	+	
	Belgilangan qoidalardan chiquvchi istisnolarni asossiz belgilanishi	bor	-	Yo`q	+	
	Vaqt chegaralarining aniq belgilanmaganligi	bor	-	Yo`q	+	
	To‘lov miqdorlari aniq belgilanmaganligi	bor	-	Yo`q	+	
	Ortiqcha va asossiz talablarning o‘rnatilganligi	bor	-	Yo`q	+	
	Sanksiyalarning nomutanosibligi	bor	-	Yo`q	+	
	Chora-tadbirlarni amalga oshirishning moliyalashtirish manbalari noaniqligi	bor	-	Yo`q	+	

Nazorat bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Shikoyat qilish tartibining mavjud emasligi	bor	-	Yo`q	+	
	Shaffoflik va jamoatchilik nazoratini ta’minlashdagi bo‘shliqlar	bor	-	Yo`q	+	
	Davlat organlarining faoliyati ustidan nazorat qilishning shakllari va turlari belgilanmaganligi	bor	-	Yo`q	+	